SHARQ ILMINING UYG‘ONISH DAVRI ATOQLI ALLOMASI IBN SINONING TIBBIYOT SOHASIGA QOLDIRGAN ILMIY MEROSI

G‘iyosxanova nilufar kamoliddin qizi
University of busines and science
tibbiyot fakulteti
davolash ishi yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Norinov muzaffar ramonjon o‘gli
University of busines and science
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada tib ilmining asoschisi bo‘lgan Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot ilmiga yozgan asarlari, risolalari, tibbiyot rivojiga qo‘shgan hissalari, nafaqat G‘arb mamlakatlarida balki Sharq mamlakatlarida ham tibbiyot darsligi sifatida qo‘llanilgan ilmiy meroslarini o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar. *Dunyo svilizatsiyasi, tib qonunlari, qonun qisqartmasi, G‘arb va Sharq mamlakatlari, Ibn Sino, Avitsenna, Markaziy Osiyo*

KIRISH

Markaziy Osiyoning nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri sifatida etirof etilganiga ko‘plab dalillar keltirish mumkin. O‘zbekiston esa ushbu mintaqaning markazida joylashgan bo‘lib jahon ilm-faniga beqiyos hissa qo‘shgan mashxur alloma va mutafakkirlarning yurti hisoblanadi. Shulardan biri tabobat ilmida o‘chmas iz qoldirgan Ibn Sinodir. Abu Ali ibn Sino ilm taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi juda ulkan, O‘rta Osiyo tuprog‘idan yetishib chiqqan buyuk allomalarimizdan biri hisoblanadi. Bobomizning qalam tebratmagan sohasi yo‘q desak mubolag‘a bo‘lmaydi, ayniqsa tibbiyot sohasiga qo‘shgan ulkan hissasi bebahodir. Ibn Sino ko‘p qirrali ilm tolibidir. Uning nomini Gippokrat, Galen kabi buyuk allomalar bilan bir qatorda turadi.

Ibn Sino – dunyo sivilizatsiyasi rivojiga hissa qo‘shgan siymo, jahon tibbiyot ilmining daholaridan biri. U o‘z ijodida o‘rta asr fani yutuqlarini yuksak darajaga ko‘tardi. Jamiyatni rivojlantirish va insoniyat kelajagi uchun ilm egallash, axloqiy poklik va ezgu amallarni muhim omillardan biri deb biladi. Tabobat fanining taraqqiyotida Ibn Sino tibbiy asarlari yuqori baholanadi. Agar Abu Bakr Roziy tabobat tarixiga doir kitoblardagi tarqoq Sharq tabobatini tartibga solgan tabib sifatida tanilgan bo‘lsa, Ibn Sino Sharq tabobatining o‘rganilmagan sohalarini o‘rgangan, kamchiliklarini to‘ldirgan va uni bayon uslubini kamolotga yetkazgan tabib sifatida dunyoga mashxur bo‘lgan.

Ibn Sinoning otasi aslida Balx shaxridan bo‘lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur davrida Buxoroga ko‘chib kelgan, Xurmatin nomli qishloqda hukmdor etib tayinlanadi. Onasi esa Sitora bo‘lib uning ikki o‘g‘li bo‘ladi, shulardan kattasi Xusayn bo‘lib, Ibn Sinoning bolalikdagi nomi asli shunday edi. Ukasi Mahmud haqida esa adabiyotlarda ma’lumot berilmagan. Tabobat ilmining sultoni bo‘lmish ibn Sino 370 xijriy yili safar oyining boshida, ya’ni 980 yil avgust oyining 2-yarmida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida yashagan. Keyin esa ibn Sino oilasi bilan birgalikda Buxoroga ko‘chib kelgan. Ibn Sinoning to‘liq ismi Abu Ali Al Husayn Ibn Abdullox ibn Al-Hasan ibn Ali Ibn Sino.

Buyuk alloma tib ilmida juda tez kamol topa boshlaydi. Ibn Sino 17 yoshida Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanilgan. O‘sha davrda Somoniylar davlati hukmdori Nuh ibn Mansur kasal bo‘lib, saroy tabiblari uni davolashga ojiz bo‘lishadi va dong‘i ketgan tabibning ovozasi saroyga ham yetib borgan edi. Uni saroyga taklif qilishadi va shoh tez fursatlarda oyoqqa turadi. Va buning evaziga ibn Sino saroy kutubxolaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu kutubxona o‘sha davrdagi eng katta kutubxolardan biri edi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, bizning bobomiz 17 yoshida nimalarga qodir ekanligi va qanday darajada ilm tolibi ekanligini. kecha-yu kunduz mutolaa qilish natijasida Ibn Sino o‘z bilim doirasini mislsiz darajada kengaytiradi.

U o‘z davridagi yirik olimlardan biri hisoblangan Abu Rayhon Beruniy bilan ilmiy munozaralar o‘tkazgan. U dastavval tabobatga oid mashxur asari “Kitob al-qonun fit- tib “ (Tib qonunlari) ning birinchi kitobini yozishga kirishadi. Uning “Tib qonunlari” nomli shoh asari XVII-XVIII asrlargacha Sharq va G‘arb tabiblarining eng e’tiborli qo‘llanmasi bo‘lib kelgan. Bundan tashqari “Kitob ash-shifo” ni ham shu kezlarda yozadi. Fors tilidagi falsafiy kitobi “Donishnoma” ni tasnif etadi. Uning tibbiyotga oid asarlari: “Urjuza fi-t-tib”, “Al-adviya al-Qalbiya”, “Daf –al- madorr al-kulliya an-al-abdan al-insoniya”, “Kitob al-qulanj”, “Maqola fi-n-nabz”, “Urjuza fit-tib”, “Risola f-l-box”, “Urjuza Fi-l-mujarrabot”, “Risola f-l-tadbir al-musofirin”, “Risola fi xifz as siqqa”, “Risola fi-l-fasad”.

Ibn Sinoning tafakkur xazinasi, deya e’tirof etilgan o‘lmas asarlari yaratilganiga ming yildan oshsa ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. U 450 dan ortiq asar yozgan. Bizgacha 242 tasi yetib kelgan. Asarlardan 80 tasi falsafaga, 43 tasi tabobatga, qolganlari mantiq, psixologiya, tabiiyot, astranomiya, matematika, kimyo, musiqa, axloq, adabiyot va tilshunoslikka bag‘ishlangan. Ayniqsa uning “Tib qonunlari” asari alohida tahsinga sazovordir. Yevropa universitetlarida besh asrdan ortiq davr mobaynida tabobatdan qo‘llanma sifatida o‘qitilgan. Bu asarda tib ilmining umumiy va asosiy mavzulari, a’zolari, kasalliklar hamda sodda va murakkab dorilar tasnifi mufassal bayon qilingan. Ibn Sino ilmiy merosoni chuqur o‘rganish, hozirgi kunga

qadar kam o‘rganilgan yoki e’tibordan chetta qolgan ilmiy asarlarini muomalaga kiritish mutaxasislar oldida turgan eng dolzar masalalardan biridir. O‘zbekistonning sharqshunos olimlari Toshkentdagi shifokorlar bilan hamkorlikda 1954-1961-yillar mobaynida “Tib qonunlari”ning besh kitobini arabchadan o‘zbek va rus tillarida tarjima qilib nashr etdilar.

Birinchi kitob – tabobatning nazariy asoslari, amaliy tabobatning umumiy masalalari haqida ma’lumaot beradi. Tabobat ilmining ta’rifi, uning vazifalari, xilt va mizoj (unsurlarning o‘zaro aralashuvi jarayonida qarama-qarshi ta’sirlarning kamayishi natijasida hosil bo‘lgan moddiy jismning yangi sifatidir yoki unsurlarning nihoyat darajada mayda bo‘laklaridagi qarama-qarshi kayfiyatlarning bir-biriga ta’siri ma’lum bir chegaraga yetganda paydo bo‘ladigan kayfiyatdir), odam tanasining oddiy a’zolari – suyak, tog‘ay, asab, arteriya, vena, pay, mushaklar haqida qisqacha anatomic ocherk keltiradi. Kasallikning kelib chiqish sabablari, ko‘rinishlari, turkumlari hamda ularni davolashning umumiy usullari keltiriladi. Ovqatlanish, hayot tarsi va hayotning hamma bosqichlarida Sog‘liqni saqlash tadbirlari haqidagi ta’limot batafsil bayon qilinadi.

Ikkinchi kitob – o‘sha davr tabobatida qo‘llanilgan dori-darmonlar haqida zaruriy ma’lumotlar bayon qilingan mukammal majmuadir. Unda o‘simlik, hayvon, ma’danlardan olinadigan 800 dan ortiq dori-darmonlar ta’rifi, ularning davolik xususiyatlari va qo‘llanilish usullari bayon qilingan. Muallif O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq hamda O‘rta Sharq mamlakatlaridan chiqadigan dori-darmonlardan tashqari, Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Afrika, O‘rta yer dengizining orollari va boshqa joylardan keltiriladigan ko‘plab dorivor o‘simliklarni ham ko‘rsatib o‘tadi.

Uchinchi kitob – inson tanasining boshidan tovonigacha bo‘lgan a’zolarida yuz beradigan xususiy va mahalliy kasalliklar haqida ma’lumot beradi. Bu kitob xususiy patalogiya va terapiyaga bag‘ishlangan. Unda bosh miya, ko‘z, quloq, burun, lab, tish, og‘iz bo‘shlig‘i, milk, o‘pka, yurak, qizilo‘ngach, tomoq, oshqozon kasalliklari, jigar, o‘t pufagi, ichak, buyrak, qovuq, jinsiy a’zolar kasalliklari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

To‘rtinchi kitob – inson a’zolarining birortasiga xos bo‘lmagan umumiy kasalliklarga bag‘ishlangan. Turli isitmalar, shishlar, toshmalr, yara-chaqalar, kuyish, suyak sinishi va chiqishi, turli xil jarohatlar keltirilgan. Bundan tashqari, o‘ta yuqumli kasalliklar: chechak, qizamiq, moxov, vabo, quturish kasalliklari haqida so‘z boradi. Toksikologiyaning ham asosiy masalalari bayon bayon qilinadi. Kitobning maxsus bo‘limi insonning husni va chiroyini saqlashga va pardoz-andoz vositalariga bag‘ishlangan, sochni to‘kilishdan saqlaydigan, haddan tashqari semirib ketish yokida ozib ketishning oldini oladigan dori-darmon va tadbirlar haqida so‘z yuritiladi.

Beshinchi kitob – farmakopiya, unda murakkab tartibli dori-darmonlarni tayyorlash va ulardan foydalanish usullari bayon qilingan. Kitobning birinchi qismida turli taryoqlar (ziddi-zaharlar), ma'junlar, kulchadori, elaki dori, sharbatlar, qaynatma, sharob, malham va h.k.larga tasnif berilsa, ikkinchi qismida muayyan a'zolar – bosh, ko‘z, quloq, tish, tomoq, ko‘krak qafasi, qorin bo‘shlig‘i a'zolari, bo‘g‘imlar va teri kasalliklarini davolash uchun ishlatiladigan dori-darmonlar keltirilgan.

Hozirgi kunga qadar Ibn Sino ilmiy merosining 1/3 qismi hali nashr qilinmagan. Ibn Sino "Tib qonunlari" da yozishicha: "Tib ilmining maqsadi salomatlikni saqlash va u yo‘qotilsa, qayta tiklashdan iboratdir" – deydi. Bu bildirilgan jumladan ham ma'lumki, har bir tibbiyot xodimining vazifasi kim bo‘lishidan qat'i nazar uning oldiga kelgan bemori uchun jon dildan yordam bermog‘i va uning dardini o‘zining dardi kabi bilmog‘i lozim va burchi desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. U shu maqsadga erishish uchun olti zaruriy omilga qat'iy rioya qilishni talab qiladi. Ibn an-Nasafiy o‘zining "Qonun qisqartmasi"da bu olti uslubni soda va ravon uslubda bayon qiladi. Ular quyidagilar: birinchi omil – turli-tuman xatolardan saqlanish; ikkinchi omil – toza havodan nafas olish; uchinchi omil – ovqatlanish va ichiladigan narsalarning tartibiga rioya qilish; to‘rtinchi omil – uyqu va uyg‘oqlikni mo‘tadil qilish; beshinchi omil – harakat va harakatsizlikni tartibga solish; oltinchi omil – istifrog‘ (bo‘shatish) va ihtibos (saqlab turish), ya'ni ortiqcha narsani tanadan chiqarish va tana ehtiyoji uchun zarur narsalarni saqlash kabilardan iboratdir.

Bu omillar bizning kundalik hayotimizdagi ish-harakatlarimizni to‘g‘ri qo‘llash orqali erishmog‘imiz darkordir. Ta'kidlash lozimki, ulug‘ hakim bobomiz Ibn Sinoning bunday bildirgan fikrlari bizning hayotimizning sog‘lom ravnaqi uchun kerakli darajada asqotdi, g‘oyalari uning asarlariga yozilgan sharhlar va qisqartmalar orqali bugunki kun tibbiyoti kelajagida o‘z aksini topdi, nafaqat bizning mustaqil yurtimiz – O‘zbekistonimizda balki yuqorada aytib o‘tilganidek sharq va g‘arb mamlakatlarida ham o‘quv qo‘llanmalri sifatida tibbiyot talabalari uchun o‘qitilmoqda. Bundan shuni tushunishimiz kerakki, bizning bobomizni nimalarga qodirligi, qanday darajada ilm sohibi ekanliklari, qanday darajada serqirra ijodkor ekanliklarini ham anglashimiz kerak. "tib qonunlari"dan foydalanishni osonlashtirish maqsadida qisqartmalar, kichik qo‘llanmalar yaratilgan. Hozirgacha bu qisqartmalarning o‘ntasi ma'lum.

Qisqartmalarning ko‘pchiligi Turkiya, Hindiston, Eron va Fransiya kutubxonalarida saqlanadi. Ibn Sinoning shogirti Muhammad ibn Yusuf Iloqiyning "Iloqiy qisqartmalar" qisqartmasi "Tib qonunlari" ning birinchi kitobidan qilingan birinchi qisqartma hisoblanadi. Uning tibbiy asarlari soni 43 tani tashkil qiladi. "Tib qonunlari"ning birinchi kitobi tib ilmining nazariy asoslari va amaliy tabobatning umumiy qoidalari haqida, ikkinchi kitobi o‘simlik, hayvon va ma'danlardan olingan

800 dan ortiq soda dorilar, ularning shifobaxshlik xususiyatlari va qo‘llanish usullariga bag‘ishlangan. Uchinchi kitob inson tanasining boshidan tovonigacha bo‘lgan a’zolarda yuz beradigan “juz’iy” kasalliklar, ularni aniqlash va davolash usullari haqida ma’lumot beradi. “Tib qonunlari” asari unga misli ko‘rilmagan shuxrat keltirdi, jahonga mashxur qildi. O‘z mazmuniga ko‘ra bu asar tibbiy bilimlarning nodir majmuasi – qomusi hisoblanadi.

Usmoniylar davrining mashhur tabibi Ahmad ibn Kamol tomonidan “Qisqartma” usmonli turkchaga tarjima qilingan. Tarjimaning bir nusxasi Sulaymoniya kutubxonasidagi Nurusmoniya kolleksiyasidagi 3487 raqam ostida saqlanadi. Mazkur “Qonun qisqartmasi” ning Turkiya kutubxonalarida 44 ta qo‘lyozma nusxasi saqlanadi. Ibn Sino ilmiy meroslarini musulmon Sharqidagi madrasalarga asosiy darslik sifatida olib kirgan shaxs Alouddin Abulhasan Ali ibn Abulxazm al- Qarshiy ibn an- Nafisdir. Uning arab tilida yozilgan “Mo‘jaz al- Qanun” asari “Tib qonunlari” ning anatomiya qismidan tashqari barcha qismlariga tuzilgan qisqartmadir. O”zR FA SHI fondida bu asarning 6 ta qo‘lyozma nusxasi saqlanadi. Sulaymoniyada saqlanayotgan Ibn Sino asarlari falsafa (89 ta), mantiq (11 ta), din falsafasi (53 ta), tasavvuf (5 ta), tilshunoslik (2 ta), adabiyot (12 ta), matematika (7 ta), fizika (2 ta), kimyo (2 ta), tabobat (58 ta), siyosat (1 ta) kabi asarlari mavjud. Sulaymoniyada “Kitab ash- Shifa” ning 32 nusxasi mavjud. Ibn Sino asarlarining eng ko‘p qo‘lyozmalari ham Turkiyada saqlanadi. Uning qo‘lyozma fondida Ibn Sinoning bir yarim mingdan ortiq qo‘lyozma nusxalari mavjud. “Tib qonunlari” asrlar davomida Sharq-u g‘arbda ishonchli qo‘llanma bo‘lib keldi. Asarning asl arabcha matni birinchi marta 1593- yil Rimda nashr etilgan. Keyinchalik Qohira (1873, 1877, 1879), Tehron (1899), Lahor (1905), Laknav (1905-1906), Bayrut (1987, 1993) shaharlarda nashr qilingan. Yevropada XV va XVI asrlarda 36 marta nashr qilingan. Ibn Sino ayrim asarlari “rajaz” vaznli she’rda bayon etilgan. XVIII asrgacha Yevropaning aksariyat universitetlarida “Tib qonunlari” bo‘yicha ta’lim berilgan.

Yevropaning Rojer Berkon, Dante Aligeri, Leonardo da Vinchi, Volter, Vezaliy, Gyote kabi mutafakkirlari va madaniyat arboblarining ilmiy, falsafiy, dunyoqarashi Ibn Sino asarlari ta’sirida shakllandi. Ibn Sino ilmiy merosini o‘rganish borasida turli mamlakatlar olimlari tomonidan ko‘plab ishlar qilingan va uning asarlari hozirgi kunda dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan, ular yuzasida hanuz ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Abu ali Ibn Sino asarlarining eng ko‘p qo‘lyozmalari ham Turkiyada saqlanadi. Turkiyaning qo‘lyozma fondida Ibn Sino asarlarining bir yarim mingdan ortiq qo‘lyozma nusxalari mavjud va ushbu qo‘lyozma asarlar Turkiya madaniyat va turizm vazirligiga qarashli.

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men

ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham, albatta, bo'ladi.[1] Ibn Sinoning davolash usullariga vorislik qilish xalq shifokorligini taraqqiy ettirishning asosi hisoblanadi. Chunki bobomiz 16 yosh vaqtidayoq Nuh Ibn Mansur Somoniyning kasalini davolab sog'aytirgan, xalq olamining e'tirof etilishiga erishgan. Shuning uchun "Al-Qonun fit-tib" 17-asrgacha Yevropaning tibbiyot universitetlarida asosiy dars qo'llanmasi sifatida qo'llanilgan.

Uning bu asari katta hajmli asr bo'lganligi sababli 12-asrgacha qo'lyozma shaklida xattotlar tomonidan qo'ldan-qo'lga ko'chirilib, dunyoning har qaysi joylariga islomiy ilm yurtlari va madrasalarida darslik qilingan. Bu asar orqali Islom shifokorligi dunyoga tarqalgan va G'arb shifokorligining shakllanishiga asos slogan. Ibn Sino daho tabib sifatida shuxrat qozonishining asosiy sabalaridan biri – uning anatomiya – inson gavdasining tuzilishini chuqur bilganligidadir. Bosh suyagining tuzilishi, tishlarning tuzilishi, tana qismlari, ko'z qorachig'ining tuzilishi, bajaradigan vazifasi, ko'z muskullarining joylashishi, asablar, qon tomirlar, mushaklar tuzilishi, funksiyalari to'g'risida yozganlari anatomiyaning amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu amaliy anatomiyaning asoschisi N.I.Pirogovni Ibn Sinonig izdoshi deyishga asos bo'ladi. Ibn Sinoning tibbiyotga oid asrlari orasida tibning ayrim nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan turli hajmdagi "Urjuza fi-ttib" ("Tibbiy urjuza"), "al-Adviyat al-qalbiya" ("Yurak dorilari"), "Daf almadorr al-kulliya an-al-abdon al-insoniya" ("Inson badaniga yetishgan barcha zarralarni yo'q qilish"), "Kitob al-qulanj" ("Qulanj haqidagi kitob"), "Maqola finnabz" ("Tomir urishi haqida maqola"), "Risola fi-l-boh" ("Shahvoniy quvvat haqida risola"), "Risola fi tadbiri al-musofirin" ("Safardagilarning tadbiri haqida risola"), "Risola fi xifz as-siha" ("Sog'liqni saqlash haqida risola"), "Risola fi-s-sikanjubin" ("Sikanjubin haqida risola"), "Risola fi-Ifasd" ("Qon aylanish haqida risola"), "Risola fi-Ihindabo" ("Sachratqi haqida risola") kabi risolalar ham bor.

Ibn Sino dorishunoslik sohasida chuqur tadqiqotlar olib brogan. U antic olimlarning farmatsiya asosida musulmon Sharqida paydo bo'lgan yangi farmatsiyaning shakllanishiga yakun yasadi. Tabobatda sano, tamr-hindiy (hind xurmosi), kofur (kamfara), rovoch kabi dorilarning ishlatilishi, asal o'rnida ko'p dorilarning qand (shakar) asosida tayyorlanishi ham Ibn Sinoning xizmatidir. Uning dorivor o'simliklari yig'ish, saqlash, qayta ishlash usullari hozirgi dorishunodlikdagi usullarga juda yaqin, u tabiiy dorilar bilan bir qatorda kimyoviy dorilarni ham birinchilardan bo'lib ishlatgan. Eng muhimi u dorilarni shifobaxsh ta'siriga kata ahamiyat bergan va kasallik turiga qarab avval sodda so'ng murakkab tarkibli dorilarni qo'llagan, dori qo'llash vaqtida bemorlarning Yoshi, mizoji va iqlim sharoitiga e'tibor

[1] Sh.M.Mirziyoyev xalq so'zi. 2017-yil, 4-avgust.

berishni ta'kidlaydi. Olim ishlatgan dorilarning bir qanchasi hozirgi farmokopeyalardan mustahkam o'rin olgan.

"O'z tarixini bilmagan kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q"[2]. Ma'lumki biror-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur xurmat ifodasidir. Madomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish yana bir bor qurollantirish zarur[3]. G'urur bilan takidlash joizki, Abu Ali ibn Sino bobomizning haqiqiy va huquqiy davomchi va izdoshlaridan biri bu Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazidir. Ushbu nufuzli ilmiy-amaliy tadqiqot tashkiloti boy ilmiy madaniy merosini jonlantirar va intilishlari bilan o'tmish nurini kelajakka yo'naltiradi.

Bundan tashqari, Buxoroda Ubu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Toshkent shaxridagi Ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi ko'plab hududiy texnikumlar, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat axborot-kutubxona markazi, Ibn Sino nomidagi tibbiy va ilmiy adabiyotlar nashr etishga ixtisoslashgan nashriyoti ham bobomiz nomiga bag'ishlab tashkillangan. YUNESKO tomonidan 1980-yilda buyuk alloma Ibn Sinoni 1000 yilligi keng miqyosda nishonlangan. "Kitob al-qonun fit-tibb" asarini o'zbek tilida 10 jildlik to'plami nashr etilgani ham Ibn Sinoni nafaqat Osiyoda balki butun dunyoda o'zining o'chmas va yorqin o'rni borligidan dalolat beradi. Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamalakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak[4]

XULOSA

Tib – bu sog'liqni saqlash va biror bir sababdan tanada paydo bo'lgan kasallikning tuzatilishidan iboratdir. Xulosa qilib aytganda, Abu ali ibn Sinoning eng mashhur durdona asarlaridan biri "Kitob al-qonun fit-tib" ("Tib qonunlari") kitobi hisoblanadi. Bu asar o'z zamonasidagi tabobat ilmining mufassil qomusi sifatida inson sog'lig'i va kasalliklarga oid bo'lgan barcha muammolarni mantiqiy tartibda to'la mujassam etgan. Buyuk olimning qilgan xizmatlarini ilm ahli vakillari nafaqat Osiyoda balki jahonda ham e'zoz etiladi.

[2] I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" 2008. 3-bet.
[3] Karimov I. A. O'zbekistonning yangi tarixi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida "sharq" nashriyoti Toshkent 2000. 6-bet.
[4] Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T.: "ma'naviyat" 2008.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Krimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch Toshkent.: “ma’naviyat” 2008. B 21.
2. Sharq tabobati. 2025
3. Sharq tabobati. 2023
4. Nashrga tayyorlovchi, tarjimon, maqolalar va sharhlar muallifi Xamidulla Xikmatullayev “Sharq tabobati”. Toshkent.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
5. Rustambek Shamsutdinov, Husanboy Mo‘minov “O‘zbekiston tarixi”. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi. Toshkent 2020.
6. S.A.Toshtemirov “Tarixshunoslik”. Toshkent 2022.
7. Abu Ali ibn Sino asarlari qo‘lyozmalari Turkiya kutubxonalarida. Toshkent 2024.
8. Baxtiyor Isoqov “Tarix – tarbiya tayanchi”. Namangan 2019.
9. Turkiston chor Rossiya mustamlakachiligi davrida. Toshkent 2000.